Dosbayeva Shahnoza Abdurahimovna (Namangan davlat universiteti; dosbayevashacnoza@gmail.com)

MONTESSORI PEDAGOGIKASI ASOSIDA MANTIQIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Montessori pedagogikasining asosida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlar tahlil qilinadi. Maqolada Montessori pedagogikasining asosiy tamoyillari, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, mantiqiy masalalarga, va muammolarni yechish ko'nikmalariga yo'naltirilgan ta'lim jarayoni bilan bog'liq shartlar yoritiladi. Montessori pedagogikasida o'yin orqali o'rganish, erkin faoliyat va yaratuvchanlikni rag'batlantirish kabi asosiy jihatlari ko'rsatiladi. Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda o'quv materiallarining mosligi, o'quv muhitining qulayligi haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Montessori pedagogikasi, mantiqiy fikrlash, ta'lim jarayoni, mustaqil fikrlash, individual yondashuv, o'yin, pedagogik shart-sharoitlar, o'quv materiallari, o'quv muhit, yaratuvchanlik.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ НА ОСНОВЕ ПЕДАГОГИКИ МОНТЕССОРИ

Аннотация. *В данной статье анализируются педагогические условия, необходимые для развития логического мышления на основе педагогики Монтессори. В статье освещаются основные принципы педагогики Монтессори, условия, связанные с учебным процессом, ориентированным на развитие самостоятельного мышления, решение логических задач и навыков решения проблем. Подчеркиваются такие ключевые аспекты, как обучение через игру, свободная деятельность и стимулирование творческого подхода. Также рассматриваются соответствие учебных материалов для развития логического мышления и удобство учебной среды.*

Ключевые слова: *педагогика Монтессори, логическое мышление, учебный процесс, самостоятельное мышление, индивидуальный подход, игра, педагогические условия, учебные материалы, учебная среда, творческий подход.*

PEDAGOGICAL CONDITIONS OF DEVELOPING LOGICAL THINKING ON THE BASIS OF MONTESSORI PEDAGOGY

Annotation. *In this article, the pedagogical conditions necessary for the development of logical thinking based on Montessori pedagogy are analyzed. The article highlights the main principles of Montessori pedagogy, the conditions related to directing students toward independent thinking, logical problems, and problem-solving skills. Key aspects such as learning through play, encouraging free activity, and fostering creativity are discussed. It also focuses on the suitability of educational materials and the comfort of the learning environment in developing logical thinking. The article examines the effectiveness of the Montessori pedagogy in the educational process and its importance in fostering the logical thinking of children from a scientific perspective.*

Keywords: *Montessori pedagogy, logical thinking, educational process, independent thinking, individualized approach, play, pedagogical conditions, learning materials, learning environment, creativity.*

Kirish. Dunyoda maktabgacha ta'lim jarayonida rivojlantiruvchi markazlar faoliyatini tashkil etishda Montessori pedagogikasidan foydalanish orqali bolalarning bilishga qiziqishini oshirishning pedagogik-psixologik mexanizmlarini takomillashtirish, bolalarda individual va jamoaviy fikrlashni shakllantirishning interfaol texnologiyalarini ishlab chiqishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning texnologiyalarini ishlab chiqish, mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda pedagogika imkoniyatlaridan foydalanishning maqbul mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa Montessori pedagogikasi asosida maktabgacha yosh davridagi bolalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish yo'llarini aniqlashtirishni taqozo etadi.

Respublikamizda maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, tarbiyalanuvchilarda mustaqil va mantiqiy fikrlashni o'rgatish, turli fan tarmoqlarini o'qishga qiziqishni oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Yoshlarda bolalik chog'idan kitobga mehr uyg'otish, mustaqil fikr va keng dunyoqarashni shakllantirish ularning hayot yo'llarida mustahkam zamin bo'ladi".[1] Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarni lug'at boyligini oshirish, jarayon va holatlar haqida erkin fikr yuritish, o'z xohish va istaklarini mustaqil bayon eta olishga tayyorlash, milliy va zamonaviy ilm-fan bilimlarini samarali o'rgatish va bular xususida mantiqiy mulohaza yuritish qobiliyatini o'stirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish muhim aha-

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yil 19-mart kuni bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishi. https://www.xabar.uz/jamiyat/prezident-raisligida-videoselektor.

miyat kasb etadi. Bu esa maktabgacha yoshdagi bolalarda turli holatlarga nisbatan mantiqiy fikr yutirishning pedagogik-psixologik va metodik xususiyatlarini aniqlashtirishning didaktik ta'minotini takomillashtirishni nazarda tutadi.

Muhokama va natijalar. Montessori pedagogikasi, eng avval, his-tuyg'uni rivojlantirish zarur degan qoidaga suyangan. Ehtimol, ayni shu qarashi sabab ta'lim tizimida inqilob yasay olgandir. U tuzgan darsliklarning barchasi o'yin va harakatli mashg'ulot orqali bola hissiyotini tashqariga chiqarishga moslashtirilgan. Tarbiyachilarga ham kitobni shunchaki zerikarli ohangda o'qish, bilgan-ko'rganini quruq gap, bayon bilan emas, o'yin va taqdimotlar orqali ko'rsatish, o'rgatish talab etilgan.

Montessori metodining eng afzal jihatlaridan biri bolaning turli qoliplarga solinmasligidir. Sinf xonasi, guruhdagi emin-erkinlik bolalarni mashg'ulotlarda faol bo'lishga ruhlantirgan, amaliy mashg'ulotlarga bajonidil sho'ng'ishga undagan, eng muhimi, bola bevosita o'zini-o'zi tarbiyalay olgan. Montessori bolalarning materiallarni mustaqil tanlashi, erkin harakatlanishiga qo'yib berib, tajribalar o'tkazgan. Mustaqillik – ta'limning maqsadi, psixologik rivojlanishni kuzatish va bolalarga yetakchilik qilish tarbiyachining vazifasi bo'lsin, deydi. "Men hech qanday metodika kashf etganim yo'q, aksincha, bolalarning erkin yashashiga imkon berdim", deya qiziquvchilarning savoliga javob qaytaradi (1-rasm).





1-rasm. Montessori o'yinchoqlari.

Mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi mashg'ulotlarni tashkil etishda Montessori pedagogikasining quyidagi oltin qoidalariga amal qilish talab etiladi:

– bola faol bo'lishi muhim, uning ulg'ayishida kattalar ikkinchi o'rinda tursin, rahbar emas, ko'makchi bo'lsin;

– erkin harakat va bola tanlovi;

– katta bolalar o'zidan kichiklarga bilganini o'rgatsin, ayni shu odat boshqalar haqida g'amxo'rlik qilish ko'nikmasini shakllantiradi;

– bola qarorni o'zi chiqarsin;

– mashg'ulotlar maxsus hozirlangan muhitda o'tilishi shart;

– kattalarning burchi – bolani qiziqtira bilish, keyin bolaning o'zi rivojlanib ketaveradi;

– bola ichidagi iste'dodni to'liq ko'rsatishi uchun unga erkin fikrlash, harakat va tuyg'u imkonini berish kerak, xolos;

– bolani tabiatdan bezdirish emas, do'st qilish kifoya;

– uni tanqid qilmang, qandaydir ortiqcha taqiq, cheklov bilan bo'g'mang;

– xato qilishga har bir bolaning haqqi bor, uni to'g'rilashni ham o'ziga qo'yib bering.[1]

Pedagogik amaliyotda mashg'ulotlarni didaktik ta'minlash komplekslarini yaratishga katta e'tibor beriladi. Ular o'qitish malakasini oshirish uchun ishlab chiqilgan bo'lib, ta'lim jarayonining samaradorligi, bilimlar tizimini o'zlashtirishda didaktik birlikni yaratish va bolalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish kabi bir qancha vazifalarni bajaradi.

Mashg'ulotlarni o'quv-uslubiy ta'minlash uchun didaktik majmualarning afzalliklari quyidagilardan

[1] https://www.gazeta.uz/oz/2023/03/12/montessori/

iborat:

1) o‘quv ma’lumotlarini yig‘ish, tashkil etish, saqlash, qayta ishlash, uzatish va taqdim etishning izchilligi;

2) didaktik materiallarning o‘zaro bog‘liqligi va yagona asosi;

3) didaktik majmuadan turli xil vositalarda foydalanish imkoniyati.[1]

Bunday komplekslarning tarkibi va tuzilishi dinamik bo‘lib, muayyan mavzuga bog‘liq.

Didaktik ta’minot bilan ishlash quyidagilarga imkon beradi:

- tarbiyaviy mashg‘ulotning tuzilishini o‘zgartirish, bolalarning harakatlarini tartibga solish bo‘yicha ko‘rsatmalar ishlab chiqish;
- faol aqliy faoliyatni tashkil etish, bolalarning ijodiy faolligi va mustaqilligini rivojlantirish;
- bolalarning charchoqlarini kamaytirish, mashg‘ulotga qiziqish va motivatsiyani rivojlantirish.[2]

Montessori pedagogikasining asosiy vazifalaridan biri bolalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishdir. Bu jarayon bolalarning faoliyatga qiziqishini oshirish va mustaqil o‘qib-o‘rganish imkoniyatini yaratadigan maxsus didaktik ta’minot va texnologiyalardan foydalanishni talab etadi.

Quyidagi natijalar Montessori pedagogikasi asosida mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar asosida kelib chiqdi:

1. Mustaqil o‘rganish muhitining yaratilishi. Montessori tizimi bolalarda mustaqil faoliyatga undash orqali mantiqiy fikrlashni shakllantiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, yaxshi tayyorlangan o‘quv muhitida bola o‘zining qiziqishlari asosida faoliyat yuritadi, bu esa tahliliy va mantiqiy fikrlash jarayonlarini qo‘llab-quvvatlaydi.

2. Didaktik materiallar va vizual metodlardan foydalanish. Montessori metodikasi doirasida ishlab chiqilgan didaktik materiallar va vizual vositalar orqali bolalar mavzularni osonroq anglab yetadi. Bu materiallar konkret tajriba orttirish imkonini yaratadi va mantiqiy tahlil, bog‘lanishlar o‘rnatish jarayonlarini samarali tarzda rivojlantiradi.

3. Individual yondashuv. Har bir bolaning o‘ziga xos qobiliyatlari va o‘rganish uslublarini hisobga olish, mantiqiy fikrlashni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni isbotladi: individual yondashuv orqali har bir bola o‘z salohiyatini maksimal darajada namoyon etadi va bu mantiqiy fikrlash jarayonining chuqurlashishiga olib keladi.

4. Tajriba va amaliy faoliyatning ahamiyati. Montessori uslubida bolalarni faol tajribaga jalb etish, ularga kuzatish, eksperiment qilish va xatolardan o‘rganish imkoniyatini berish mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Amaliy mashg‘ulotlar orqali bolalar nazariy bilimlarni real vaziyatlarga tatbiq etishni o‘rganadi.

5. O‘yin asosidagi ta’lim metodlari. O‘yin va interaktiv faoliyatlar mantiqiy fikrlashni rag‘batlantiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, o‘yin orqali ta’lim metodlari bolalarda analitik va mantiqiy tahlil ko‘nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi.

Ushbu natijalar Montessori pedagogikasi asosida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni belgilaydi va ularning samaradorligini amaliy tajribalar bilan tasdiqlaydi.

Xulosa. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida Montessori pedagogikasi asosida mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar bolalar uchun turli xil amaliy va sensorli materiallar yordamida amalga oshiriladi. Mashg‘ulotlar bolalarga matematik, mantiqiy va geometrik tushunchalarni o‘zlashtirishga, muammolarni hal qilishga va o‘z fikrlarini aniq ifodalashga yordam beradi. Montessori materiallari, masalan, rangli bloklar, geometrik shakllar, raqamlar va matematik to‘plamlar bolalarga mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda asosiy vosita sifatida ishlatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 29-dekabr.

(2). Meinke H. Exploring the Pros and Cons of Montessori Education. 11/04/2019. https://www.rasmussen.edu/ degrees/education/blog/pros_cons_montessori_education/

(3). Xayrullayev M. Forobiy ruhiy protsesslar va ta’lim-tarbiya to‘g‘risida. T., “O‘qituvchi”, 1967, 79-bet.

(4). Xudoynazarov E.M. O‘quvchilarda mantiqiy firklashning rivojlantirishning didaktik asoslari. Oriental Renaissance. Innovative, educational, natural and social sciences. 3(2), Feb., 2023, p. 289–297.

[1] Бочкарева, Е.В. Содержательные аспекты методического обеспечения образовательной деятельности в организациях СПО [текст]. “Среднее профессиональное образование”, 2017, № 3, с. 33 – 34.

[2] Введение в общую дидактику. М., “Высш. шк.”, 2015, 382 с.

(5). https://www.gazeta.uz/oz/2023/03/12/montessori/
(6). Бочкарева, Е.В. Содержательные аспекты методического обеспечения образовательной деятельности в организациях СПО [текст]. "Среднее профессиональное образование", 2017, № 3, с. 33 – 34.
(7). Введение в общую дидактику. М., "Высш. шк.", 2015, 382 с.

Asqarov Ahliddin Alisher o'g'li (University of Business and Science "Maktabgacha boshlang'ich ta'lim va jismoniy tarbiya" kafedrasi katta o'qituvchisi; ahliddinasqarov@gmail.com)

4–5-SINF O'QUVCHILARINING SINFDAN TASHQARI MASHG'ULOTLARDA JISMONIY QOBILYATLARINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya. *Ushbu maqola 4–5-sinf o'quvchilarining jismoniy qobiliyatlarini sinfdan tashqari mashg'ulotlar orqali shakllantirish masalalarini yoritadi. Tadqiqot maqsadi sinfdan tashqari mashg'ulotlarning jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirishdagi samaradorligini aniqlash va ushbu jarayonni optimallashtirish bo'yicha tavsiyalar va jismoniy tarbiya bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlili, amaliy kuzatuvlar va eksperimental tadqiqot natijalari keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *jismoniy qobiliyatlar, sinfdan tashqari mashg'ulotlar, 4–5-sinf o'quvchilari, jismoniy tarbiya, tezlik, kuch, chidamlilik, chaqqonlik, moslashuvchanlik, fiziologik yetilish, jismoniy qobiliyat, moslashuvchanlik qobiliyatlari.*

ФОРМИРОВАНИЕ ФИЗИЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ 4–5 КЛАССОВ ВО ВНЕУРОЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация. *Данная статья освещает вопросы формирования физических способностей учащихся 4–5 классов посредством внеурочных занятий. Целью исследования является определение эффективности внеурочной деятельности в развитии физических способностей и разработка рекомендаций по оптимизации данного процесса. Представлены анализ научной литературы по физическому воспитанию, практические наблюдения и результаты экспериментального исследования.*

Ключевые слова: *физические способности, внеурочная деятельность, учащиеся 4–5 классов, физическое воспитание, скорость, сила, выносливость, ловкость, гибкость, физиологическое созревание, двигательные навыки, навыки адаптации.*

DEVELOPING PHYSICAL ABILITIES OF 4TH–5TH GRADE STUDENTS THROUGH EXTRACURRICULAR ACTIVITIES

Annotation. *This article addresses the issues of developing the physical abilities of 4th and 5th grade students through extracurricular activities. The aim of the research is to determine the effectiveness of extracurricular activities in developing physical abilities and to provide recommendations for optimizing this process. It presents an analysis of scientific literature on physical education, practical observations, and the results of experimental research.*

Keywords: *Physical abilities, extracurricular activities, 4th–5th grade students, physical education, speed, strength, endurance, agility, flexibility, physiological maturation, motor skills, adaptability skills.*

Kirish (Introduction). Mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish, shuningdek, ularni har tomonlama rivojlangan, ijtimoiy mas'uliyatli shaxslar etib voyaga yetkazish maqsadida zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratilgan. Jismoniy tarbiya, o'z navbatida, nafaqat jismoniy, balki irodaviy sifatlarni ham shakllantiradi. Bu jarayon yoshlarni aqliy va jismoniy jihatdan mehnatga va Vatan mudofaasiga tayyorlashga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat sifatida ijtimoiy tarbiyaning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

Bugungi kunda, yuqori darajada rivojlangan ishlab chiqarish va ijtimoiy sharoitlarda, jismonan baquvvat, ishlab chiqarish jarayonida yuqori unumlilikni ta'minlashga qodir, qiyinchiliklarga qarshi chidamli hamda vatan himoyasiga doimo tayyor bo'lgan yosh avlodni tarbiyalash zarurati yanada o'sib bormoqda. Bunday yoshlar, faqatgina milliy iqtisodiyot va ijtimoiy tizim uchun emas, balki mamlakatimiz xavfsizligi uchun ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Shuning uchun jismoniy tarbiya va yoshlarni kamolotga yetkazish jarayonlarini yagona maqsadga yo'naltirib boshqarish, jamiyatning kelajakdagi muvaffaqiyati va barqarorligi uchun zarurdir [1].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Xorijiy olimlardan J.Ruis sinfdan tash-+qari mashg'ulotlarning bolalarning jismoniy faolligini oshirishdagi rolini o'rganadi va ularning sedentar (kam harakatli) hayot tarziga qarshi kurashishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi (Ruiz. 2012). P.Andersson esa sport mashg'ulotlarining bolalarning kognitiv qobiliyatlariga ta'sirini o'rganadi va ularning diqqatini jam-